

I bob O'quvchi bilimni tekshirish va baholashning nazariy asoslari.

1.1 Nazariy bilim va amaliy bilimlarni baholash.

Baholash- ta'lim jarayoning ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil etishdan iborat jarayondir.

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga raxbarlik qilish xamdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun -qoidalarning qaysi birini qiyin, qaysi birini esa oson o'zlashtirilishi aniq ravshan bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko'rishi va o'quv mashg'ulotini o'tkazishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek ,ta'lim oluvchiga ham ta'lim jarayonida qaysi o'quv materialini yaxshi, qaysi qo'niqarli va nimani yomon o'zlashtirgani ma'lum bo'ladi.

Bilimlarni tekshirmasdan ta'lim oluvchi o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to'g'ri baholashga qodir emas. Ba'zan unga go'yo o'quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog'ida esa materialni yaxshi bilmasligi yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'lib qoladi.

Baholash natijasida, ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish ,tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi.

Bilimlarni, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi.

Baholash hamisha ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. Ta'lim oluvchini muntazam ravishda o'z natijalari to'g'risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishiga va istaklarini ro'yobga chiqarishga ijobiy tasir ko'rsatadi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, tuyg'ularini, uning xarakteridagi irodalilik hamkorlik, o'zaro bir biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga e'tibor qaratilishi lozim bo'ladi.

Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalarga xam erishadi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirmagan tushunchalarning mohiyatiga tushunib yetadi.

Shu bois baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb xam aytish mumkin.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim-

tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar nechog'lik bajarilayotgani aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirib ko'rilishi kerak. Bu bilan talim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o'lchanadi. Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o'quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

- O'quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun.
- Keyingi bosqichga o'tishdan oldin avval o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash lozim.
- Natijaga erishilganligini tasdiqlash uchun.
- Ta'lim oluvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun.
- Yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun.
- Ta'lim beruvchi o'z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun.
- Yalpi o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun.
- Ta'lim jarayoni yuqularini aniqlash uchun.
- Ta'lim oluvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun.
- Tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma'lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

- Nazariy bilimlarni;
- Amaliy bilim va ko'nikmalarni;
- Xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarini;

Yuqorida ta'kidlanganligidek, nazariy bilimlar baholanayotganida kognitiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko'nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa effektiv o'quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali doimiy tarzda bo'lishi shart.

Bu talabga rioya etilmasa ta'lim oluvchilarning o'qishga bo'lgan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Xar bir ta'lim oluvchi uning qaysi bilimlari, ko'nikma va malakalari baholanayotganligini bilishi kerak. Ta'lim beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o'quv jarayonining muhim bir bo'lagi uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro'y beradi.

1.2 Baholash tamoyillari va shakllari.

Quyidagi beshta asosiy **tamoyillar** baholash tizimi samaradorligini poydevori hisoblanadi.

- O'quv maqsadlariga asoslanganlik.
- Haqiqiylik
- Haqqoniylik
- Ishonchlilik
- Qulaylik

O'quv maqsadlariga asoslanganlik. Samarali baholashning asosiy tamoyillari o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o'quv maqsadlariga to'g'ridan- to'g'ri bo'g'liqdir. O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlarining qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. Shuningdek o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday baholar tizimi loyihalashtirilayotganda, baholash topshiriqlari berilgan ta'lim mazmuni doirasida bo'lishi talab etiladi. Baholashni loyihalashtirayotganda, xar doim quyidagi ikki savolni e'tiborga olish lozim:

- 1 Baholash topshiriqlari ta'lim jarayonidan ko'zlangan o'quv maqsadlarini to'la aks ettiradimi?
- 2 O'quv maqsadlari darajasida baholash shakllari, usullari va mezonlari to'g'ri tanlanadimi?

Masalan, yo'l harakati qoidalari bo'yicha olingan bilimlarni baholashda yozma test olish usuli mos kelishi mumkin. Lekin undan mashinani boshqarish malakalarini baholashdan foydalanib bo'lmaydi. Bu malakalar o'g'zaki yoki yozma emas, balki amaliy faoliyatga asoslangan baholash usuli yordamida baholanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Haqiqiylik. O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim.

Ta'lim oluvchining erishgan natijalari to'g'risida asoslangan va ishonchli axborotlar berish kerak. O'lchanishi talab etiladigan narsalargina o'lchanishi kerak. Ta'lim oluvchi egallagan bilim, malaka va ko'nikmalar xamda shaxsiy fazilatlarini o'lchash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur.

Haqqoniylik. Bir biridan mustaqil ta'lim beruvchilar bir xil ta'lim oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo'yicha bir xil baho bergan xoldagina mazkur baholash haqqoniy hisoblanadi. Bu haqqoniylik xar xil vaqtlarda berilgan baholar uchun xam taalluqlidir.

Baholash tizimi o'quv maqsadlariga mos bo'lishi shuningdek baholash shart –sharoitlari va maqsadlari bilan ta'lim oluvchilar oldindan tanishgan bo'lishlari lozim. Ta'lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va xajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

Ishonchlilik. Natijalarni baholash mobaynida xar xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin bu usullarnitanlashga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik xisoblanadi. Uslub ishonchli bo'lishi uchun baholash asosli va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur.

Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligini qanchalik ishonchli ekanligini nazarda tutiladi.

Baholash ishonchli bo'lishi uchun ta'lim oluvchilarga bir –birlariga o'xshash, ammo xar xil sharoitlarda baholash o'tkazilganda, natijalar bir xil bo'lishi kerak.

Baholash metodining ishonchliligi turli metodlarning natijalari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Baholash tizimi ishonchli bo'lishi uchun turli eksperimentlar yordamida baholash o'tkazilganda, uning natijalari bir-biriga o'xshash bo'lishi kerak.

Baholash ishonchliligining ikki tomoni bor:

1. Baholash usulining ishonchliligi yuqori bo'lsa, talabaning o'zlashtirish darajasibaholashning xar xil usullaridan foydalanganda xam o'zgarmay qoladi.
2. Baholashning o'zlashtirish darajasini xisobga olish ishonchliligi. Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini baholash usullarining ishonchliligi deb, baholash boshqa joyda va boshqa imtihon oluvchi tomonidan o'tkazilganda ham, uning bir xil bo'lishi, o'zgarmasligi tushuniladi.

Baholash usullarining ishonchlilik darajasi quyidagi xolatlarda ko'proq bo'ladi.

- Hamma ta'lim oluvchilar qo'yilgan talabni aniq tushunsa;
- Baholash shartlari oldindan ma'lum qilinsa va unga rioya qilinsa;
- Hamma natijalar baholashning oldindan kelishilgan mezonlariga to'la asoslangan bo'lsa;
- Tasodifiy xatolarni kamaytirish maqsadidamos baholash turlari qo'llanilsa;

Qulaylik. Baholash tizimi o'quv maqsadlaridankelib chiqqan xolda, o'quv va ishlab chiqarish standartlariga mos bo'lishi, murakkab bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va ta'lim oluvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo'lsa, ball berish o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga moslashtirilgan bo'lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo'lgan qismlariga unchalik muhim bo'lmagan qismlarga nisbatan ko'proq ball berish kerak bo'ladi.

Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin.

1. Mezonga asoslangan baholash.
2. Meyorga asoslangan baholash.

Mezonga asoslangan baholash. Baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, ko'nikma va malakalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlari aniq belgilab beruvchi o'rganish maqsadlari bo'yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to'g'ridan to'g'ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruxlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o'lchanadi.

Mezonga asoslangan baholashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- O'quv maqsadiga muvofiq baholanadi;
- Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini obyektiv baholaydi;
- Baholash o'zining aniq ko'rsatkichlariga ega bo'ladi;
- Ta'lim oluvchi olgan bahosidan yo'l qo'ygan xatolarini yaqqol ko'rib turadi;
- Baholanuvchini ta'lim olishga yo'naltiradi;
- Baholanuvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab beradi, ulaning o'z bilimi va malakalariga bo'lgan ishonchini oshiradi;
- Hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarini o'rnatadi;
- Ta'lim mazmunini aniqlab beradi;
- Baholanuvchilarning o'z faoliyati natijalariga bo'lgan masuliyatini oshiradi.

Mezonga asoslangan baholashning kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:

- Mezonlarni ishlab chiqish ko'p vaqt talab qiladi;
- Mezonlarning obyektivligi, xaqqoniyligi va aniqligini aniqlashga nisbatan talabalarning ko'pligi;
- Ijtimoiy fan yo'nalishlari bo'yicha mezonlar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch keladi;

Meyorga asoslangan baholash nisbiy baholash shakli bo'lib, baholashdan so'ng baholanuvchilarning ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini o'zaro taqqoslash orqali o'lchashdan iborat.

Bu baholash shakli xam ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o'zaro taqqoslash orqali o'lchanadi. Meyoriy baholashda baho bir necha ko'rsatkichlarga va ta'lim olish shart –sharoitlariga ko'ra o'zgarishi mumkin bo'ladi.

Meyorga asoslangan baholashning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ta'lim beruvchi ortiqcha vaqt sarflamaydi;
- turli shart-sharoitlarga oson moslashtirish mumkin;
- baho bo'yicha ko'rsatkichlar umumiy tarzda olinadi;
- muayyan baholanuvchilar guruhi ichida ularning o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashtirish imkonini beradi;
- baholash natijasida gurux ichidan ma'lum sondagilarni ajratib olish imkonini beradi;

Meyorlarga asoslangan baholashning kamchiliklari esa quyidagilardan iborat:

- bilimlarni obyektiv va haqqoniy baholashning pasayishiga imkoniyat yaratadi;
- baholashda bilim bilan xulqni baholash aralashtirilib yuboriladi;
- ba'zan xulqni baholash bilimni baholashni belgilab beradi;
- baholar ta'lim beruvchi tomonidan subyektiv belgilanishi mumkin;
- ta'lim oluvchilar nisbatan simpatik ham bahoni yuqori qo'yib yuborishga olib keladi;

Baholash o'tkazilish vaqtiga ko'ra uch turga ajratiladi:

- boshlang'ich baholash;
- joriy, ayni shakllantiruvchi baholash;
- yakuniy, ya'ni umumlashtiruvchi baholash;

Boshlang'ich baholash ta'lim jarayoni boshida ta'lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunday baholash natijalari ta'lim jarayonining mazmuni va metodlari, shakllarini tanlash imkonini beradi.

Joriy baholash muntazam ravishda o'tkazilib boriladi. U ta'lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta'lim jarayoni samarasini tezkor aniqlab borish, o'quv jarayonini muofiqlashtirish va ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi.

Yakuniy baholash ta'lim oluvchining ta'lim jarayonining ma'lum davridagi o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Yakuniy baholash ta'lim jarayonining ma'lum bosqichi yakunida o'tkaziladi. U joriy baholash natijalarini jamlaydi.

Umumlashtiruvchi baholashni o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Ta'lim oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o'tkazilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu uning baholashga tayyorgarlik ko'rishiga olib keladi.
- Baholashni o'tkazish shartlari unga jiddiy yondashishga, diqqatni chalg'itadigan yoki tasodifiy uzulishlardan o'zini chetga olishga hamda ta'lim oluvchining o'z qobiliyatini namoyish qilishga imkon beradi.
- Baholash o'tkazish sharoitida ta'lim oluvchi o'zini erkin tutishi va nohushlik xis etmasligiga imkoniyat yaratish kerak.
- Baholovchi va ta'lim oluvchi baholash nima maqsadda , u qachon, kim tomonidan va qanday o'tkazilishini bilishlari muxim ahamiyatga egadir.
- Qo'yilgan baho o'quv natijasiga qay darajada erishganlikni tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir.
- Ta'lim oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezoni yordamida baholanishi lozim.
- Rejalashtirilmagan baholashni o'tkazish maqsadga muvofiq emas.

1.3 Ta'lim maqsadlariga erishilganligini baholash:

Baholash- joriy , oraliq va yakuniy nazoratlarni o'z ichiga oladi. Joriy nazorat talabani o'zlashtira borayotganligidan mutassil xabardor qilib boradi, odatda joriy nazoratda bolaning bilimiga baho qo'yilmaydi, intilishlari ma'qullanib boriladi,shu tariqa u bilimlarni shakllantirishda ishtirok etadi.Pedagogik texnologiyada xabardor bo'lib borish ta'limda yo'l qo'yilgan xatoni tuzatish uchungina emas, ta'lim maqsadlarini aniqlashga xam xizmat qiladi. Yakuniy nazoratda rejalashtirilgan ta'lim maqsadiga erishilganlik baholanadi.

Nazorat o'g'zaki, yozma va test shaklida bo'lishi mumkin.

Og'zaki va yozma nazorat. O'g'zaki nazoratni yaxshi jihatlariga: o'qituvchining talaba bilan jonli muloqoti, shaxsan muloqotda bo'lishi:og'zaki nutqning mashq qilinishi:bilimni chuqurroq aniqlash uchun qo'shimcha savollar berish imkoniyati kabilar kiradi.og'zaki javob berish faol fikrlashga undaydi.

Og'zaki javob berishda yaxshi tayyorlangan o'quvchi o'z bilimdonligini, qo'shimcha o'rganganlarini namoyish etadi. Talaba bilan bevosita aloqa natijasida so'rash paytida bolaning bilim o'zlashtirishi masalasida o'qituvchida tug'ulgan ayrim shubhalar bartaraf etiladi.

Shu bilan birga talabaning bilimini og'zaki nazorat qilishda pedagogning shaxsiy xususiyat sifatleri aks etadi. Og'zaki baholashda xar bir o'qituvchiga xos obyektivlik va subyektivlik munosabati namoyon bo'ladi. Pedagogik tadqiqotlarda aniqlanishicha ikki imtixon oluvchining bir talabaga bir fandan qo'ygan baholari 40-60 foizga mos keladi. Bir bolaga imtixonchilarning bittasi yuqori baho qo'ygan bo'lsa,ikkinchisi past baho qo'yish hollari uchraydi. Bitta yozma ishning o'ziga turli imtihonchilar turlicha baho qo'yishlari mumkin.

Xullas, og'zaki va yozma imtixonlarga o'quvchiga qo'yiladigan baholarda subyektivlik alomati ko'proq. O'qituvchi ko'pincha bahoni boshqa o'quvchilarga nisbatan qo'yadi, bunda qo'yilayotgan baho kamaytirilishi xam, oshirib yuborilishi xam mumkin.

Yozma imtixonni yaxshi tomoni – u o'quv materialini bola o'zlashtirib olganiga xujjatli dalil bo'ladi, talaba o'z fikrlarini qog'ozda ifodalashi uchun amaliyotda ekspertlar o'tkazgan yozma nazorat obyektivroq baho qo'yilishga imkoniyat yaratadi.

Og'zaki va yozma nazoratning an'anaviy tizimiga xos jiddiy nuqsonlar qatoriga quyidagilar kiradi.

1. Imtixonda talaba biletdagi 3-4 ta savollarga javob beradi, baho esa o'quv predmeti dasturini bilgani uchun qo'yiladi.
2. Besh balli baho shkalasi bilan bilim o'zlashtirish darajalari orasidagi tafovutlarni aniq belgilashga imkoniyat bermaydi.
3. Og'zaki va yozma imtihonlar bilim o'zlashtirish sifatini obyektiv , aniqlik va asosli baholashni taminlay olmaydi.
4. Og'zaki so'rashga , shuningdek yozma ishlarni tekshirishga ko'p vaqt ketadi.
5. Og'zaki va yozma nazorat uchun kompyuterlarni ishlatish qiyin, ularni avtomatlashtirish qiyin . Bu jihatda test nazorati ustunlikga ega.

Test nazorati. Test nazoratining yaxshi tomonlariga quyidagilar kiradi:

1. Yaxshi tuzulgan pedagogik test obyektiv pedagogik o'lchashning instrumenti bo'lib , uning natijasi nazorat o'tkazuvchi odamga bog'liq bo'lmaydi.
2. pedagogik test o'quv materiali mazmunini to'liq qamrab olishi mumkin, ta'lim natijasini test usulida o'lchashda- hamma talabalarga nisbatan bir xil , oldimdan belgilangan shkalaga belgilangan aniq va to'g'ri baho qo'yiladi.
3. test nazoratida texnikani ishlatish qulay, bu ma'lum o'quv materialini yoki butun bir fanni , nisbatan oz vaqt kuch sarflab, ommaviy nazorat qilishga imkon beradi.
4. test nazoratini kompyuterlar vositasida avtomatlashtirish oson. Bu uning muhim ustunliklaridan biridir.

Lekin test usuli xam nuqsonlardan xoli emas, masalan test nazoratining ko'p shakllari talabaning og'zaki va yozma javoblarini mustaqil ifodalash imkoniyatidan mahrum etadi. Talabaning ruhiy kechinmalari xam o'qituvchi oldida erkin javob berayotganidagidek namoyon bo'lmaydi;

Bilimdonligi , shaxsning o'zigagina xos ruhiy xususiyatlarini ko'rsatish imkoni yo'q. Imtixon topshiruvchi to'g'ri javobni tanlashigina mumkin, xolos.

Shunga qaramay pedagogik testlarning ijobiy imkoniyatlari katta, ulardan o'rinni, to'g'ri foydalanish ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'qish va o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi. Har bir pedagog , ta'lim boshqaruvi

idoralarining xodimlari test madaniyatini test nazariyasi va amaliyotini chuqur o'rganishlari lozim.

Pedagogik testlarni qo'llash o'qitish jarayoni va natijalariga katta tasir o'tkazishi mumkin: sifatli tuzulgan testlar talabning bilish faolligini oshiradi va aksincha yomon tuzulgan testlar o'qish jarayoniga salbiy ta'sir etishi xam mumkin.

1.4 Baholash xatoliklari

Ta'lim jarayonida ba'zi holatlarda baholashga subyektiv yondashishlarga duch kelamiz. Bunday yondashishga **baholashdagi xatoliklar** deb ataymiz . ta'lim beruvchining shaxsiy qarashlari bilan bog'liq bir necha baholash xatolari mavjud:

Hayrixoxlik xatosi

Agar ta'lim beruvchi biror ta'lim oluvchiga nisbatan hayrixoxlik bilan qarasa , bu bahoning biroz yuqoriroq bo'lishiga olib kelishi mumkin .

Yuqori talab qo'yish xatosi

Agar ta'lim beruvchi o'ziga nisbatan yuqori talablar qo'ysa va xuddi shunday yuqori darajadagi talablarni ta'lim oluvchilarga nisbatan qo'llasa, bu bahoning biroz pastroq bo'lishiga olib kelishi mumkin.

O'rtacha baho berish xatosi

Bu xato ta'lim oluvchilarning natijalari o'rtacha baholanishini bildiradi. Buning sabablari ta'lim beruvchining o'ta yaxshi va o'ta yomon baho berishdan qo'rqishi bo'lishi mumkin.

O'z fikrini o'zgartirmaslik xatosi


Ta'lim beruvchi o'zining birinchi fikrini o'zgartirishni xoxlamasligi tufayli, o'z nazoratining natijalarini o'zgartirishsiz qoldiradi. Bir marta sodir bo'lgan voqea tufatli ta'lim beruvchida biror ta'lim oluvchi to'g'risida qolgan ijobiy yoki salbiy taassurot , keyinchalik bu ta'lim oluvchining shaxsiyatiga oid barcha boshqa xususiyatlariga e'tibor bermasligiga olib keladi.

Yoqtirmaslik xatosi

Biror ta'lim oluvchining yoqtirmasligi yoki unga nisbatan salbiy fikrda bo'lishi tufayli ta'lim beruvchi ta'lim oluvchiga yomon baho qo'yadi. Bu xato "hayrixoxlik xatosining " aksidir.

Ta'lim beruvchining baholashdagi xatoliklarini oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish kerak:

- Baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish va ularni to'g'ri tanlash .
- Baholashdan oldin ta'lim oluvchilar bilan talabalar va baholash mezonlarini muxokama qilish.
- Nazorat varaqasini ishlab chiqish
- Baholovchining bir emas, balki ikkita bo'lishi
- Baholash usullarini to'g'ri tanlash

- 
- Baho mezonlariga muvofiq qo'yilgach , ta'lim oluvchilarga ma'lum qilish.
 - Baholash topshiriqlarini va ularga javoblarni imkon boricha yozma ravishda o'tkazish va rasmiylashtirish.
 - Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchi bilan birgalikda olingan baholarning natijalarini va yo'l qo'yilgan xatolarini muxokama qilish xamda sababini aniqlash
 - Xatolarni tuzatish chorasini belgilab olish.





tarbiyalashga imkon tug'uladi. Bu o'z-o'zidan nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi sanaladi.

O'quvchi va talabalarning bilimini , aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosida muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga nazorat va baholash jarayoni o'quvchi shaxsini rivojlantirishga va tarbiyalashga ta'sir ko'rsatadi.

II bob Ta'lim muassasalariga baholash mezonlarini olib borilishi.



Hozirga kunda uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb hunar ta'limini va oliy ta'lim bosqichlarida o'quvchi talabalar bilimi reyting tizimida baholanadi. Baholashning bunday shakli o'quvchi talabalarni butun o'qish davomida o'z bilimlarini oshirish uchun muntazam ishlashni hamda o'z ijodiy faoliyatini takomillashtirishni rag'batlantirish g'oyasiga asoslanadi.

O'quvchi bilim darajasi sifatini nazorat qilishning reyting tizimini joriy etishning asosiy maqsadi nazoratning har xil turlari va shakllaridan foydalanish yo'li bilan umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari talablari bajarilishini ta'minlash, ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Reyting (inglizcha baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash. Reyting tizimi o'quvchilarning bilim sifatini nazorat qilish turi, metodi va shakli sifatida e'tirof etilib, uning yordamida o'quvchilarning o'quv fanlari bo'yicha ta'lim standartida belgilangan barcha talablar bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlari sifati baholanadi.

2.1 Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib boriladigan baholash mezonlari.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi xamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslaxatchisi xizmati va vazirlar Mahkamasi Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy muxofaza, axborot tizimlari telekommunikatsiyalar kompleksining 2010 yil 17 martdagi qo'shma yig'ilishida belgilangan vazifalar doirasidayangi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilar bilim sifatini baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom loyihasi tayyorlangan.

Mazkur nizomni tayyorlash davrida ilgari qo'llanilgan "5"baholik xamda ko'p ballik reyting tizimida belgilangan maqsad va vazifalarning to'liq bajarilmay qolish xolatlari, ko'plab qo'pol xato va kamchiliklar e'tiborga olingan xolda, shuningdek bu borada dunyoning rivojlangan davlatlari tajribalari o'rganilgan va baholashning "quyidan yuqoriga ijobiy baholash "prinsipi asosda yangi o'ziga xos, xammabop va samarali mehanizm ishlab chiqilgan.

Ushbu reyting tizimi ixchamligi, oddiyligi, keng jamoatchiligi uchun tushunarli, eng muhimi o'quvchining bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini rivojlantirishga imkon yaratish, o'quvchi, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida hamkorlikni samarali yo'lga qo'yish bilan avvalgilardan farqlanadi.

Umumta'lim maktablari o'quvchilari bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "ta'lim to'g'risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi va "Bola xuquqlarining kafolatlari to'g'risida" gi qonunlarga muvofiq xamda O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 1998 yil 13

maydagi “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta‘limni tashkil etish to‘g‘risida” gi 203- sonli va 2004 yil 24 iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Davlat test markazi Faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi 293-sonli qarorlarida belgilangan vazifalar doirasida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari

o‘quvchilari bilim sifatini baholashning reyting tizimini tartibga soladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida reyting tizimini joriy etish quyidagi maqsadlarni amalga oshirishdan iborat:

- O‘quvchilar bilim sifatini baholash, ularning bilim darajalari bo‘yicha reytinglari aniqlanadi.
- O‘quvchilarni bilim olishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish va rag‘batlantirish .
- Umumiy o‘rta ta‘limning Davlat ta‘lim standartlarida belgilangan talablarni umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida to‘liq bajarilishini ta‘minlash.
- Ta‘lim jarayonida imkon qadar har bir o‘quvchining iqtidori va qobiliyatidan qat‘iy nazar bilim olishga bo‘lgan ishiyoqini jonlashtirish , qiziqishlarini rivojlantirish va rag‘batlantirish .

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘quvchilari bilim sifatini nazorat qilishning reyting tizimining vazifalari:

- O‘quvchilarning xar bir o‘quv fani bo‘yicha nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirish darajalarini aniqlash .
- O‘quv fanlari bo‘yicha o‘quvchilarning xar kungi darsga tayyorgarlik ko‘rgan xolda kelishini ta‘minlash.
- O‘quvchilar bilim, ko‘nikmava malakalarning shakllanish sur‘atini muntazam ravishda tahlil qilib borish .
- O‘quvchilar bilim, ko‘nikmava malakalarida bo‘shliqlarining yuzaga kelishini oldini olish , ularni aniqlash va bosqichma bosqich bartaraf etishni amalga oshirish.

O‘quvchilarning bilim sifatini aniqlashda quyidagi nazorat turlari aniqlanadi:

Joriy nazorat- kunlik so‘rovlar va testlar orqali o‘quvchilarning bilim , ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirilganligi aniqlanadi

Oraliq nazorat- yarim yil davomida , o‘quv dasturining tegishli bo‘limida o‘tilgan mavzular bo‘yicha o‘quvchilarning agallagan bilimlari yozma ish , testlar orqali nazoratdan o‘tkaziladi. Oraliq nazorat materiallari fan o‘qituvchisi tomonidan tayyorlanadi. Agar oraliq nazoratida olgan baho o‘quvchini qoniqtirmasa , u xolda ushbu o‘quvchiga oraliq nazorat ishini qo‘shimcha 1 marta topshirishga imkon beriladi.

Bosqichli nazorat- umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘quv yili tamom bo‘lganidan keyin imtihon shaklida amalga oshiriladi. Bosqichli nazorat uchun imtihon materiallari respublika ta‘lim markazi tomonidan tayyorlanadi . Ushbu

namunalarga ijodiy yondashgan holda fan o'qituvchilari bosqichli nazorat materiallariga o'zgartirishlar kiritishi va ularni uslubiy birlashmalar muhokamasidan o'tkazib, joriy etishlari mumkin.

Yakuniy nazorat-umumiy o'rta ta'lim tugallangandan keyin yakuniy davlat attestatsiyasi "Umumiy o'rta ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi" nizom (2008 yil 20 mart) talablari asosida o'tkaziladi.

Umumta'lim maktablari o'quvchilari bilimlari sifatini nazorat qilishning reyting tizimida ballar va ularning darajalarini aniqlash tartibi ("quyidan yuqoriga ijobiy baholash" prinsiplari asosida).

"1" ball o'quvchi mavzu bo'yicha o'rganilgan xodisalar, tamoyillar va ularning farqlari, o'xshashliklarini ajratishda topshiriqlarni noto'g'ri bajarsada, javob berishga xarakat qilsa va javobni isbotlashga harakat qilsa, u berilgan imkoniyatning 1 tasidan foydalangan xisoblanadi va unga "1" ball qo'yiladi."1" ball uchun quyi daraja berilmaydi. O'quvchining foydalanmay qoldirgan imkoniyatni egallashga bo'lgan intilishga qarab "1+", fan bo'yicha daftar yuritishi, qo'shimcha savol va topshiriqlarga bo'lgan yondashuvi, dars va darsdan tashqari vaqtda namuna ko'rsatishi uchun "2-" ballgacha to'ldirishga imkon beradi.

"2" ballik o'quvchi 1 ballga bo'lgan talabni bajarsava qo'shimcha tarzda o'rganilgan mavzuga oid ayrim ma'lumotlar qoidalarni eslab, noto'g'ri bo'lsada asosli javob berishga xarakat qilsa va javobini isbotlashga urunsa u berilgan imkoniyatning 2 tasidan foydalangan bo'ladi va unga "2" ball qo'yiladi. O'quvchining foydalanmay qoldirgan imkoniyatni egallashga bo'lgan intilishiga qarab "2+" fan bo'yicha dafrat yuritishi, uyga vazifalarni bajarishga intilishi qo'shimcha savol va topshiriqlarga bo'lgan yondashuvi, dars va darsdan tashqari namuna ko'rsatishi kabi jihatlari uchun "3-" ballgacha to'ldirishga imkon beriladi.

"3"ball. O'quvchi 2 ballga bo'lgan talabini bajarib qo'shimcha tarzda o'quv materiali yuzasidan egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni qisman o'zlashtirgan xolda asosiy malumotlarni ongli ravishda to'g'ri bayon eta olsa, u berilgan imkoniyatning 3 tasidan foydalangan xisoblanadi. O'quvchining foydalanmay qoldirgan imkoniyatni egallashga bo'lgan intilishiga qarab "3+" fan bo'yicha dafrat yuritishi, uyga vazifalarni bajarishga intilishi qo'shimcha savol va topshiriqlarga bo'lgan yondashuvi, dars va darsdan tashqari namuna ko'rsatishi kabi jihatlari uchun "4-" ballgacha to'ldirishga imkon beriladi.

"4" ball. 3 ballga bo'lgan talabni bajarib, qo'shimcha tarzda malumotlarni tahlil eta olsa, mustaqil ish bajarib, ayrim (1,2 ta) xatoliklarga yo'l qo'ysa, murakkab bo'lmagan xulosalar chiqara bilsa, u berilgan imkoniyatning 4 tasidan foydalangan bo'ladi va unga "4" ball qo'yiladi. O'quvchining foydalanmay qoldirgan imkoniyatni egallashga bo'lgan intilishiga qarab "4+" fan bo'yicha dafrat yuritishi, uyga vazifalarni bajarishga intilishi qo'shimcha savol va topshiriqlarga bo'lgan yondashuvi, dars va darsdan tashqari namuna ko'rsatishi kabi jihatlari uchun "5-" ballgacha to'ldirishga imkon beriladi.

"5"ball. O'quvchi 4 ballga bo'lgan talabni bajarib, qo'shimcha tarzda o'quv materiali mohiyatini chuqur anglab qoidalar, qonunlar va g'oyalar asosida

topshiriqlar , masalalar hamda mustaqil ishlar bajarilib , u berilgan imkoniyatning 5 tasidan foydalangan hisoblanadi va unga “5” ball qo’yiladi. O’quvchining fan bo’yichi ijodiy faolligi , daftar yuritishi , uyga vazifalarni bajarishi qo’shimcha savol va topshiriqlarga aniq javob berishi , dars va darsdan tashqari vaqtda namuna ko’rsatishi kabi jihatlar uchun “5+”ball qo’yiladi.

O’quvchi egallagan ballni “quyidan yuqoriga ijobiy baholash”prinsipi asosida to’ldirish faqat fan o’qituvchisi xuquqi xisoblanadi . Ayrim xollarda maktab pedagogik kengashi hamda metodik birlashmalari takliflari inobatga olinishi mumkin . Bolalarning darajalari nafaqat nazorat turlarida , balki choraklik , yerim yillik , yillik va yakuniy reyting ballarini chiqarishda xam qo’llaniladi.

2.2 Akademik litsey va kasb- hunar ta’limi muassasalarida o’quvchilar bilimni baholash mezonlari.

O’zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta mahsus ta’lim vazirligi, O’rta mahsus, kasb hunar ta’limi vazirligi, O’rta mahsus, kasb- hunar ta’limi markazining Akademik litseylar va kasb- hunar kollejlari o’quvchilarining bilim saviyasi, ko’nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqidagi qarori O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008-yil 19 mayda 1812 –son bilan ro’yhatga olingan.

O’quvchilar bilimi, ko’nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari:

- davlat ta’lim standartlariga asoslanganlik,aniqlik, xaqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni taminlash;
- o’quvchilar bilimi, ko’nikma va malakalari darajalarini taqqoslash va ta’lim jarayonida o’zaro musobaqa muhitini yaratish;
- o’quvchilarning fanlar bo’yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarlikni taminlash;
- o’quvchilarning har bir fan va amaliyot turlari bo’yicha o’zlashtirish darajalarini aniqlash;
- o’quvchilarda bilim, ko’nikma va malakalari saviyasini shakllanish sur’atini muntazam ravishda tahlil qilib borish;

Reyting tizimining asosiy tamoyillari va nazorat turlari;

O’quvchilarning bilim saviyasi va o’zlashtirish darajasining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat tartibotlarini o’tkazish nazarda tutiladi:

- Joriy nazorat- so’rovlar, kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar (diktant, bayon , insho) va testlar tarzida bilimlar, malakalar va ko’nikmalar tekshiriladi.
- Oraliq nazorat- semestr tamom bo’lganda va o’quv dasturining tegishli bo’limi tugallangan keyin amalga oshiriladi. Uning asosida o’quvchi

reytinggi aniqlanadi. Bilimlar, malaka va ko'nikmalarni baholash uchun oraliq nazorat imtihonlar, testlar, sinovlar, kurs va malaka ishlarishaklida o'tkaziladi.

- Yakuniy nazorat akademik litseyda, kasb- hunar kollejida o'qish tugallangandan keyin davlat attestatsiyasi:imtihonlar,testlar,malaka ishlari,diplom loyihalarini himoya qilish shaklida amalga oshiriladi.
- Fan tugallanishida yakuniy nazorat test usulida o'tkaziladi. Boshqa xollarda yakuniy nazoratning o'tkazilish tartibi, shakli ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.
- Xar bir kursda o'qish tugaganidan keyin reyting nazorati natijalariga ko'ra o'quvchilarni keyingi kursga o'tkazish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

Reyting tizimini joriy qilishda quyidagi asosiy tamoyillar bajarilishi zarur:

- Xar bir fan bo'yicha tegishli kafedralar tomonidan ma'qullanganvariantlar asosida boshlang'ich nazorat o'tkaziladi. Boshlang'ich nazorat reyting monitoringi va tahlil guruhi tomonidan o'tkaziladi.
- O'quv dasturining mantiqan tugallangan bo'limi bo'yicha o'quvchi albatta baholanadi va natijasi o'tish balidan (3 ball)past bo'lganda qayta nazorat belgilanadi.

Semestr mobaynida o'quv yuklamasi 24 soatdan kam bo'lgan fanlardan oraliq nazorat o'tkazilmaydi

O'quvchining bilim saviyasini baholash va yakuniy reyting ko'rsatkichlarini aniqlash.

- o'quvchilar bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida o'quvchilarning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.
- Xar bir nazorat turi qanday shaklda o'tkazilishidan qat'iy nazar besh (5) balli ("5", "4", "3", "2") usulda butun sonlar yordamida baholanadi.
- Boshlang'ich nazoratning natijasi boshqa nazoratdan olingan ballarga qo'shilmaydi. U o'quvchining semestr davomida ushbu fan bo'yicha o'zlashtirish sur'atini tahlil qilishda , o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash faoliyatining samarasi mezonni sifatida qo'llaniladi.
- Muayyan fan bo'yicha o'quvchining semestr mobaynida to'plashi mumkin bo'lgan umumiy bali (R.semestr) maksimum "5"balni tashkil qilib , quyidagicha xisoblanadi:

$$R.semestr = \frac{JN + ON + YN}{3}$$

Bunda:

JN- o'quvchining semestr davomida joriy nazorat bo'yicha butun songa yaxlitlangan o'rtacha bali

ON- o'quvchining semestr davomida oraliq nazoratlar bo'yicha butun songa yaxlitlangan o'rtacha bali

Agar fanning semestr bo'yicha yuklamasi 24 soatdan kam bo'lib, oraliq nazorat o'tkazilmagan taqdirda

$R_{\text{semestr}} = \frac{JN + YN}{2}$ bo'ladi.

Muayyan fan yoki o'quv amaliyoti bo'yicha yillik umumiy ball sifatida, semestrlarda to'plangan umumiy ballarning o'rtachasi olinadi

$R_{\text{yillik}} = \frac{R1_{\text{-semestr}} + R2_{\text{-semestr}}}{2}$

Xar bir fan bo'yicha umumiy reyting ball R yillar bo'yicha to'plangan umumiy reyting ballarining o'rta qiymati kabi aniqlanadi (masalan fan 3 yil o'qitilsa).

$R = \frac{R1_{\text{yil}} + R2_{\text{yil}} + R3_{\text{yil}}}{3}$

Baholash va bilimlari tekshirish o'quvchida o'zlashtirish saviyasi necha foiz ekanligini ko'rsatib beradi. Baholash nafaqat o'zlashtirilganlik saviyasini, balki ta'lim oluvchilar ichida iqtidorli va qobiliyatli o'quvchilarni aniqlashda ham katta yordam beradi. Bu esa o'quvchilarni xar xil olimpiada va ko'rik tanlovlarda qatnashib o'rin egallashlariga turtki bo'ladi.

2.3 Oliy o'quv yurtlarida talabalar bilimni baholash mezonlari

Mazkur Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 11 iyuldagi 204-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 10-iyulda 1981-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Talabalar bilimni nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

Talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

Talabalar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

Fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari va elektron manbalardan samarali foydalanishni tashkil etish;

talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

Talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

O'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga, ya'ni ma'lumotlar bazasini shakllantirishga sharoit yaratish.

Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

1. Nazorat turlari, jumladan JN va ON larni o'tkazish tartibi va mezonlari, fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqilgan reyting nazoratlari jadvali kafedra mudiri tavsiyasi bilan fakultet o'quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o'quv dasturida mashg'ulot turlari bilan birgalikda ko'rsariladi.

2. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda dars olib boradigan professor-o'qituvchi tomonidan talabalarga e'lon qilinadi va ularning daftarlariga yozdirib qo'yiladi.

3. Talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

Joriy nazorat –talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda:

seminar;

laboratoriya;

amaliy mashg'ulot;

test o'tkazish;

suhbat;

nazorat ishi;

kollokvium;

uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

JN lar soni fan bo'yicha amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Oraliq nazorat-semestr davomida o'quv dasturining (tegishli fanning bir necha mavzulvarini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabanning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratning soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test, prezentatsiya va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda kafedra tomonidan belgilanadi; Masalan: semestr davomida haftasiga 2 soatli fan bo'yicha 1 ta oraliq nazorat, haftasiga 4 yoki 6 soatli fan bo'yicha 2 ta oraliq nazorat belgilash maqsadga muvofiq.

Yakuniy nazorat -semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori bilan ko'pi bilan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining 40 %dan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test va hokazo) ko'rinishda o'tkazilishi mumkin.

Baholash tartibi va mezonlari

Talabalarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabanning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Har bir fan bo'yicha talabanning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda kafedra tomonidan joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarga taqsimlanadi:
yakuniy nazoratga 30 ball;
joriy va oraliq nazoratlarga - 70 ball.

Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 86-100 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
xulosa va qaror qabul qilish;
ijodiy fikrlay olish;
mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

b) 71-85 ball uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish;
olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

v) 56-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:
mohiyatini tushunish;
bilish, aytib berish;
tasavvurga ega bo'lish.

g) Quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi 0-55 ball bilan baholanishi mumkin:
aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
javoblarda xatoliklarga yo'l qo'yilganlik;
bilmaslik.

Nazorat turlarini o'tkazish muddati

1. Joriy va oraliq nazorat turlari professor-o'qituvchilarning kalendar tematik rejasiga muvofiq fan xususiyati hisobga olingan holda fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi.
2. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi ikki haftasi mobaynida o'tkaziladi.
3. Talaba fan bo'yicha kurs loyihasi yoki kurs ishini ushbu fan bo'yicha to'plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.
4. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.
5. Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakulie dekanining farmoyishi asosida o'qishni boshlagandan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.
6. Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballar yig'indisi 55 balldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor hisoblanadi.
7. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun universitet rektorining buyrug'i bilan bir oy muxlat beriladi. Shu muddat


davomida fanni o'zlashtira olmagan talaba, fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan cheilashtiriladi.

8. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining tavsiyasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda appelatsiya komissiyasi tashkil etiladi. Appelatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

9. Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Ball	Baho	Talabaning bilim darajasi
86-100	A'lo	Berilgan savolga to'liq va aniq javob bera olsa, xar bir aytilgan fikrni zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilib bersa. Savol mazmunidan kelib chiquvchi fan bilimlariga ega ekanligini yaqqol namoyon qila olsa, fanning o'ziga xos xususiyatlarini; fan borasida chuqur bilimlarga ega bo'lsa uning o'ziga xos jihatlari to'g'risida bilimga ega bo'lsa; fan haqida teran, mustaqil fikrlay bilsa "a'lo" baho qo'yiladi.
71-85	Yaxshi	Berilgan savol mazmunini anlash asosida tegishli bilimlarni namoyon qila olsa, fan tamoyillaridan kelib chiqqan xolda savol mohiyatini tushuntirib bilsa, fikrlarni ilmiy bilimlar asosida bayon eta olsa. fan borasida chuqur bilimlarga ega bo'lsa uning o'ziga xos jihatlari to'g'risida bilimga ega bo'lsa, berilga javoblarda aniq tushuncha asosida yoritilsa fanning rivojlanish dinamikasi tahliliga oid bilimlar mavjud bo'lsa "yaxshi" baho qo'yiladi.
55-70	Qoniqarli	Berilgan savollarga qisman bo'lsada javob bersa, aynan savol mazmunidan kelib chiquvchi tushunchalar yoki dalillarni yetarli darajada izohlay olmasa; javobda aniq faktlar xamda fan bilimlarini atroflicha va to'laqonli darajada ifodalay olmasa "qoniqarli" baho qo'yiladi.
0-54	Qoniqarsiz	Berilgan savol mos javob yoki bilimga ega bo'lmasa, o'z fikrini ifodalay olmasa; fan mohiyatiga kirmagan holda umumiy sayoz gaplar bilan o'z fikrini bayon etishga xarakat qilsa, savol mazmunidan kelib chiquvchi bilim va ilmiy tushunchalar xaqida yetarli tasavvuga ega bo'lmasa "qoniqarsiz" baho qo'yiladi.

Xulosa:




Talabalar bilimni nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta`lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o`zlashtirishida bo`shliqlar hosil bo`lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Ta`lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etdi. Davlat ta`lim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o`quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo`yilayotganligi, ta`lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o`quvchilarni kasbga muvaffaqiyatli yo`llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta`lim muassasalarida keng ko`lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko`zga tashlanayotgan bir vaqtda o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

Bu fikrlar mustaqillik sharoitida jamiyatda ta`lim tizimini va o`qituvchi shaxsi va kasbining ijtimoiy mohiyatini keskin oshirib, pedagogika fani oldiga kasbiy-pedagogik mahoratni, baxolash texnologiyasini, boshqarishning takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni muhim qilib qo`yadi.

Yuqorida aytib o`tilganlardan xulosa qilgan xolda mustaqil O`zbekistonda ta`lim tarbiya ishlarini to`g`ri yo`lga qo`yilishi milliy va umuminsoniy qadryatlarning barcha imkoniyatlaridan to`la va samarali foydalanishni taqazo etadi. Jahon ma`daniyatini milliy madaniyatimizga ijobiy ta`sir qilishini inkor qilib bo`lmaydi. Ta`lim tarbiya jarayonida boshqa xalqlar pedagogik merosning ijobiy tomonlaridan qanchalik foydalanmaylik baribir o`zbek milliy qadryatlari ma`naviy kamolotimizga asos bo`lib qoladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" T "O'zbekiston" 1997 yil.
2. "Kasbiy pedagogika " blokini o'qitish metodikasi. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent-2007 yil
3. S.P.Baratov, L.P.Bolotina B.A.Slastinin. "Pedagogika" Toshkent "O'qituvchi"1990 yil.
4. Ta'lim muassasalari uchun asoslangan meyoriy xuquqiy hujjatlar to'plami.
5. Internet tarmog'i saytlari: www.ziyo.net
6. www.nspi.uz
7. Г.М.Аноркулова, Б.Р.Муқимов. "Ўқитишнинг замонавий технологиялари" Тошкент: 2010
8. Исмаилова З.К., Мусаев Р.С., Шаюсупова А.А. Ўқитишнинг замонавий технологиялари. Ўқув қўлланма. ТИМИ, 2008.
9. Олимов Қ. Т., Ашурова С.Ю., Ўринов У.А. Замонавий таълим технологиялари. Т. 2007.

